

PEDAGOGIK MAHORAT

8(1)
2025



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

8-son (2025-yil, avgust)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

5	Sinfdagi muhitga ta'siri	Emotsional xavfsiz, ishonchli muhit yaratadi
6	Dars samaradorligiga ta'siri	O'quvchilarning qatnashuvi va tushunish darajasi yuqori

Tadqiqot “Ta’lim muhitining o’zgarishi sharoitida kognitiv va affektiv empatiyaning pedagogik o’zaro ta’sir samaradorligi” sarlavhasi ostida “КиберЛенинка” (Cyberleninka) ilmiy platformasida e’lon qilingan. “Empatiya darajasi yuqori bo’lgan o’qituvchi talabalari darslarda ishonchli aloqa, ijobiy muhit va ruhiy barqarorlikni saqlab, dars samaradorligini oshirgan.” (Maqola mualliflari: TDPUnig pedagogika va psixologiya kafedrasini olimlari)

Emotsional intellekt o’qituvchining professional muvaffaqiyatini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biridir. Ayniqsa: darsni interfaol olib borishda, o’quvchilar bilan ishonchli munosabatda bo’lishda, stressli vaziyatlarni boshqarishda, dars muhitini ijobiylashtirishda.

Zamonaviy ta’limda o’qituvchining emotsional barqarorligi, ijtimoiy ko’nikmalari va o’zini anglash darajasi nafaqat dars sifatiga, balki butun ta’lim muhitiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, emotsional intellekt o’qituvchilarda rivojlantirilishi lozim bo’lgan asosiy kasbiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. So’nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar va amaliy tajribalar darajasini oshirishning turli yo’llarini tavsiya etmoqda.

Emotsional intellektni rivojlantirishning eng samarali yo’llaridan biri — bu pedagoglar uchun mo’ljallangan maxsus malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridir. 2024-yilda H. Xaludorova tomonidan olib borilgan tadqiqotda pedagoglar uchun tuzilgan emotsional intellekt rivojlantirish dasturi haqida quyidagilar qayd etilgan: Treninglar emotsional intellekt komponentlarini (empatiya, stressni boshqarish, o’zini anglash) qamrab olgan. Mashg’ulotlarda hissiy holatni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga hissiy yondashuv, ijtimoiy muloqot mashqlari tashkil etilgan. Dastur yakunida ishtirokchilarning samarali muloqot, ziddiyatlarni boshqarish, ruhiy chidamlilik kabi ko’nikmalari sezilarli darajada oshgani kuzatilgan.

O’qituvchilar uchun emotsional intellektni rivojlantirishda psixologik treninglar, fasilitatorlik yondashuvi, reflektiv amaliyotlar muhim ahamiyatga ega. Fasilitator o’qituvchi — bu faqat bilim beruvchi emas, balki o’quvchilarning hissiy holatini tushunuvchi, o’zini boshqara oluvchi, muloqotni samarali olib boruvchi yetakchidir.

So’nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko’rsatmoqdaki, emotsional intellekt — pedagogik professionallikning muhim bashoratchisi (prediktori) hisoblanadi. 2024-yilda Rossiya Federatsiyasida “ЭдПолитикум” ilmiy jurnalida e’lon qilingan maqolada bu fikr chuqur yoritilgan. emotsional intellekt yuqori bo’lgan pedagoglar: kasbiy charchoq (professional burnout)ka kamroq duchor bo’lgan; kreativ adaptatsiya, ya’ni o’zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyati kuchli bo’lgan; nizolarni konstruktiv hal qilish qobiliyatiga ega bo’lgan; o’quvchilar va ota-onalar bilan sog’lom aloqa o’rnatgan[10].

Emotsional intellekt — bu o’qituvchining shunchaki shaxsiy sifati emas, balki o’quvchilar bilan samarali muloqot, dars jarayonini boshqarish, stressni yengish va kasbiy o’sishni ta’minlovchi muhim psixologik ko’rsatkichdir. Uni quyidagi yo’llar orqali rivojlantirish mumkin:

Rivojlantirish yo’li	Mazmuni
Malaka oshirish dasturlari	Maxsus modullar asosida EI komponentlarini tizimli rivojlantirish
Psixologik treninglar va mentorlik	Faol tinglash, empatiya, moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarni oshirish
Ilmiy asoslangan metodlar (prediktor)	EI darajasi orqali kasbiy barqarorlik va pedagogik stressni bashoratlash

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev (2023). Ta’lim tizimi bo’yicha yig’ilishdagi nutq, 5-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5052-sonli qarori (2021). “2021–2023-yillarda umumiy o’rta ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli farmoni (2022). “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi”.
4. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 9(3), 185–211.
5. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.

6. Цыбульская, С. С., и др. (2024). Эмоциональный интеллект в деятельности педагога. Молодой ученый, №49.
7. Халудорова, Х. (2024). Педагогларда эмоционал интеллектни ривожлантиришнинг назарий ва амалий асослари. Crede Experto, №4.
8. Старый Санкт-Петербург (2024). Психологическое состояние учителя и его влияние на учебную среду
9. TDPUning pedagogika va psixologiya kafedrası (2024). Ta’lim muhitining o’zgarishi sharoitida kognitiv va affektiv empatiyaning pedagogik o’zaro ta’sir samaradorligi.
10. ЭдПолитикум (2024). Эмоциональный интеллект как предиктор профессиональной устойчивости педагога. EdPolitikum, №2.

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION MASHG'ULOTLARING O'ZARO INTEGRATSIYA MODELLARI

Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Maxsus pedagogika kafedrası dotsent v.b.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Mazkur maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlarning integratsiyalash jarayoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Predmet tasavvurini shakllantirish, ko'ruv idrokini rivojlantirish, logopediya, teri tuyish va mayda qo'l motorikasi, ijtimoiy-maishiy hayotga tayyorlash hamda mo'ljal olish mashg'ulotlarining uyg'unlashuvi o'quvchilarning psixofiziologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, nutqiy va kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, integratsion yondashuvning pedagogik asoslari, maxsus ta'lim muassasalarida qo'llanishi va uning samaradorligi “Nurli maskan” tajribasi misolida yoritilgan. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar orqali bolalarning shaxsiy salohiyati, mustaqilligi va jamiyatda to'laqonli ishtiroki ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: Korreksion mashg'ulot, integratsiya, tiflopedagogika, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar, logopediya, predmet tasavvuri, ko'ruv idroki, mayda qo'l motorikasi, ijtimoiy-maishiy moslashuv, mo'ljal olish, pedagogik yondashuv, kompensator mexanizm.

МОДЕЛИ ВЗАИМОИНТЕГРАЦИИ КОРРЕКЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ С ДЕТЬМИ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

В статье анализируется процесс интеграции коррекционного обучения с детьми с нарушениями зрения с научной, теоретической и практической точки зрения. Сочетание предметного обучения, развития зрительного восприятия, логопедии, тактильной и мелкой моторики, подготовки к социально-бытовой жизни и целеполагания способствует психофизиологическому развитию учащихся, расширению их речевых и познавательных возможностей, социальной адаптации. В статье также рассматриваются педагогические основы комплексного подхода, его применение в специальных образовательных учреждениях и эффективность на примере опыта «Нурли Маскан». Интегрированное обучение обеспечивает развитие личностного потенциала, самостоятельности и полноценного участия детей в жизни общества.

Ключевые слова: коррекционное обучение, интеграция, тифлопедагогика, дети с нарушениями зрения, логопедическая терапия, предметное восприятие, зрительное восприятие, мелкая моторика, социально-бытовая адаптация, целеполагание, педагогический подход, компенсаторный механизм.

MODELS OF INTERINTEGRATION OF CORRECTIVE TRAINING WITH CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENTS

This article analyzes the process of integrating corrective training with children with visual impairments from a scientific, theoretical and practical perspective. The combination of subject matter formation, visual perception development, speech therapy, tactile and fine motor skills, preparation for social and domestic life, and target acquisition training serves to support the psychophysiological development of students, expand their speech and cognitive capabilities, and ensure their social adaptation. The article also discusses the pedagogical foundations of the integrated approach, its application in special educational institutions, and its effectiveness using the example of the “Nurli Maskan” experience. Integrated training ensures the personal potential, independence, and full participation of children in society.

Keywords: Correctional training, integration, typhlopedagogy, children with visual impairments, speech therapy, object perception, visual perception, fine motor skills, socio-domestic adaptation, goal-setting, pedagogical approach, compensatory mechanism.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida maxsus pedagogika va tiflopedagogika yo'nalishlari alohida ahamiyat kasb etib, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash va ularning shaxsiy

salohiyatini ro'yobga chiqarish dolzarb masala hisoblanadi. Shu jihatdan korreksion mashg'ulotlarning turli shakllarini ajratib ko'rsatish va ularni o'zaro integratsiyalash zamonaviy pedagogikaning muhim talabiga aylanmoqda. Korreksion mashg'ulotlar ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda atrof-muhitni idrok etishning kompensator mexanizmlarini shakllantirishga, ularning psixofiziologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar orqali nafaqat bolalarning nutqiy, kognitiv va harakat ko'nikmalari rivojlanadi, balki ularning ijtimoiy-maishiy faoliyatga tayyorlanishi, mustaqil hayotga qadam qo'yishi ham ta'minlanadi. Shu sababli, korreksion mashg'ulotlarni tizimli yondashuv asosida tashkil etish, turli fan va metodlarni uyg'unlashtirish, pedagogik va psixologik vositalarni samarali qo'llash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Korreksion mashg'ulotlarning turli shakllarini ajratib ko'rsatish va ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda atrof-muhitni idrok etishning kompensator mexanizmlarini shakllantirish zarurati bilan bevosita bog'liqdir. Tiflopedagog mazkur jarayonda kompleks tuzatish mashg'ulotlarini tashkil etadi. Bunday mashg'ulotlar aniqlashtiruvchi, mustahkamlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlarga ega. Ta'limiy-korreksion ishlarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, ko'zi ojiz bolalar uchun mo'ljallangan “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida olib borilayotgan korreksion ishlarning mazmuni va yo'nalishlari ushbu yondashuvlarning amaliyotdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etdi. Mazkur ta'lim muassasalarida korreksion mashg'ulotlarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday integratsiya o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan, ko'p qirrali rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Shunday ekan, endilikda ushbu korreksion mashg'ulotlarning integratsiyasini samarali tashkil etish imkoniyatlari, qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik yondashuvlar va pedagogik vositalar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Korreksion mashg'ulotlar orqali maxsus pedagogik yondashuv asosida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixofiziologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi va ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi muhim faoliyat turi hisoblanadi. Integratsiyalashuvdan asosiy maqsad bo'lsa, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ularni umumiy ijtimoiy va ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli qo'shish, ularning hayot sifatini yaxshilashdan iboratdir.

Integratsiya-bu jamiyat va davlat tomonidan alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqish, ularning hayotning turli sohalarida erkin demokratik jamiyatning barcha a'zolari bilan teng imkoniyatlar yaratish huquqlarini tan olish va birinchi navbatda ta'lim olish bilan bog'liq bo'lgan maxsus ta'lim tizimini rivojlantirishning tabiiy bosqichidir.

Metodologiya. Korreksion mashg'ulotlarning integratsiyasi esa, bu ko'p qirrali, murakkab, biroq nihoyatda muhim jarayondir. Bu jarayonda pedagogik, psixologik, texnologik va ijtimoiy yondashuvlarning uyg'unligi orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. Har bir bolaning shaxsiy salohiyatini to'liq ochib berish, uni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllantirish aynan ana shu integratsiyalashgan yondashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Korreksion mashg'ulotlarning o'zaro integratsiyasi bolalarning har tomonlama va izchil rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligini oshiradi, ta'lim-tarbiya jarayonida yaxlitlik va izchillikni ta'minlaydi.

Amaliyotga tatbiq etgan korreksion-pedagogik tizimda aynan korreksion mashg'ulotlarning o'zaro integratsiyalashgan modellaridan foydalanildi. Bunda biz quyidagi harakat modellarini ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tuzdik. Buning uchun muhim jarayon sifatida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni atrof-olamni his etishi, narsa-buyumlarni turli xususiyatlariga ko'ra farqlashi, ushbu belgilarni tavsiflashi, predmet, hodisa va voqealarning mohiyati, vazifasi hayotdagi o'rnini tavsiflashi, ushbu predmetlardan foydalangan holda amaliy harakatlarni bajarishi, kichik va katta fazoda mo'ljallanish kabi bilish jarayonlarining uyg'un ishlashini ta'minlovchi harakatlar tizimini shu tartibda belgilab oldik. Ushbu harakatlar tizimini integratsiyalashgan mashg'ulotlardagi konfiguratsiyasini ko'rib chiqamiz.

Logopediya korreksion mashg'uloti o'quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini kengaytirishga, vizual yetishmovchilik natijasida kelib chiqqan, ikkilamchi nuqson sifatida nutq kamchiliklarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Ushbu korreksion mashg'ulotda quyidagi mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar nutqiy material sifatida tanlab olinadi. Masalan, Predmet tasavvurini shakllantirish va ko'ruv idrokini rivojlantirish mashg'ulotida predmetlarni ushlab ko'rib u haqida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni logopediya mashg'ulotida nutq birliklari negizida aytishga o'quvchi o'rganadi. Bu mashg'ulotda korreksion-ijtimoiy yo'nalgan harakatlar ketma-ketligi quyidagicha namoyon bo'ladi.

Natijalar. Demak, bola predmetni his etdi, uning nimaligini eslaydi, xotirasida tiklaydi, predmet nomini aytadi. Boshqa predmetlarda ishlatilgan talaffuzida kamchiligi bo'lgan tovushni so'zlarda, gaplarda,

jumlalarda mustahkamlaydi. Masalan, “R” tovushi talaffuzida kamchiliklar bor edi. Logopediya mashg‘ulotida “Ruchka”, “randa”, “arra”, “archa”, “kamar”, “anor” so‘zlarida nutqqa qo‘yilgan “R” tovushini mustahkamlash maqsadida aytiladi, bunda esa, ushbu so‘zlar anglatgan predmet nima ekanligini bilishi kerak bo‘ladi. Bola bu so‘z mohiyatini tushunmasa, bu predmet haqida tasavvur bo‘lmasa, uni leksik bayon eta olmaydi. Shuning uchun qanchalik Predmet tasavvurini shakllantirish va ko‘ruv idrokini rivojlantirish mashg‘uloti bolaning akademik ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo‘lsa, Logopediya mashg‘uloti aynan bolani o‘zini-o‘zi namoyon etishga xizmat qilyapti. O‘z-o‘zidan berilayotgan mashg‘ulotlarda qo‘llanilayotgan predmetlar va ular asosida o‘zlashtirilgan lug‘at Logopediya mashg‘ulotida nutqiy material sifatida ishlatildi. Bu bilan ikkala mashg‘ulotning integratsiyasiga erishildi.




1-rasm. Predmet tasavvurini shakllantirish va ko‘ruv idrokini rivojlantirish va logopediya korreksion mashg‘ulotlari integratsiyasida o‘quvchilarning korreksion-ijtimoiy harakat ketma-ketligi

Teri tuyish va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish mashg‘uloti ham yuqorida keltirilgan boshqa korreksion mashg‘ulotlar kabi ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning akademik-ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Predmet tasavvurini shakllantirish va ko‘ruv idrokini rivojlantirish mashg‘ulotida predmet bilan tanishsa, Teri tuyish va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish mashg‘ulotida aynan ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning yosh xususiyatlariga mos topshiriqlar beriladi. Masalan, to‘rtburchak shaklidagi chuqurchani mosh bilan to‘ldir. Doira shaklidagi chuqurchani guruch bilan to‘ldir. O‘z-o‘zidan biz guruch so‘zida yuqorida aytib o‘tilgan “R” tovushi mustahkamlanadi. Teri tuyish va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish mashg‘ulot o‘qituvchisi aynan logoped bilan birgalikda ish faoliyatini rejalashtirishi orqali guruch so‘zidagi “R” tovushini so‘zning o‘rtada kelishi avtomatizatsiyasiga erishiladi. Bu mashg‘ulotda o‘quvchilarning korreksion-ijtimoiy harakat ketma-ketligi quyidagicha namoyon bo‘ladi:



2-rasm. Teri tuyish va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish va logopediya korreksion mashg‘ulotlari integratsiyasida o‘quvchilarning korreksion-ijtimoiy harakat ketma-ketligi

Yuqorida Predmet tasavvurini shakllantirish va ko‘ruv idrokini rivojlantirish mashg‘ulotida tanishgan predmetni ijtimoiy-maishiy hayotga tayyorlash darsining, xususan masalan, “Choy damlash” mavzusida choynak, quruq choy, piyola, olov, suv, qaynamoq kabi tushunchalarni o‘zlashtirdi. Mana shu tushunchalarni bilish uchun esa, yana Predmet tasavvurini shakllantirish va ko‘ruv idrokini rivojlantirish mashg‘ulotiga yuzlaniladi. Predmet tasavvurini shakllantirish va ko‘ruv idrokini rivojlantirish mashg‘ulotida o‘zlashtirilgan baza Ijtimoiy maishiy hayotga tayyorlash mashg‘ulotida iste‘molga kiradi. Bu yerda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar tuzatilmasada bu boradagi ishlar davom ettiriladi. Masalan, “R” tovushi misolida davom etadigan bo‘lsa, “R” tovushi talaffuzidagi kamchiliklar to‘liq bartaraf etilmasada ammo lekin “R” tovushi ishtirok etgan buyumlardan hayotda foydalanish mashqi davom etadi. Bu bilan uchta mashg‘ulotning o‘zaro integratsiyasi namoyon bo‘ladi. Ushbu mashg‘ulot uchun korreksion-ijtimoiy harakatlar tizimi quyidagicha bo‘ladi:



3-rasm. Ijtimoiy maishiy hayotga tayyorlash va predmet tasavvurini shakllantirish va ko‘ruv idrokini rivojlantirish korreksion mashg‘ulotlari integratsiyasida o‘quvchilarning korreksion-ijtimoiy harakat ketma-ketligi

Bolaga choy qo‘yish uchun choynakni ol topshirig‘i beriladi. Bunda bola eshitadi, biladi, farqlayapti. Choy damlash uchun qaysi choynakni oladi, choy damlaydigan choynakni oladimi? yoki choyni

qaynatadigan choynakni oladimi? O‘z-o‘zidan choy qo‘yib qaynatadigan, choynak bilan choy damlaydigan choynakni farqlaydi. So‘ngra his etish orqali topshiriqni bajaradi. Korreksion mashg‘ulot o‘qituvchilarning ish faoliyatini rejalashtirishda o‘zaro integratsiyaga rioya etilsa, ularning mashg‘ulotlardagi reglamenti birmuncha qisqaradi, chunki mashg‘ulotlar ketma-ketligida ularning o‘zaro bog‘liqligida bajarilayotgan amallar, topshiriqlarda nutqiy materiallarning o‘zlashtirilishiga e‘tibor qaratish, ya‘ni nutqiy materialni eslatishga vaqt sarflanmaydi. Chunki o‘quvchining xotirasida buyum haqidagi ma‘lumot, tafsilot saqlangan bo‘ladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri amal va topshiriqlarni bajarishga, farqlashga o‘tiladi. Topshiriqni eshitib, his qilyapti va buyumlarni farqlayapti, so‘ngra aytilgan topshiriqni bajaryapti. Shuning uchun ushbu mashg‘ulotda korreksion-ijtimoiy harakat modeli his et, farqla, bajar hisoblanadi.

Mo‘ljal olish va harakatlanish mashg‘uloti ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning atrof-muhitda mustaqil va xavfsiz harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu mashg‘ulotlar ularning ijtimoiylashuvi va kundalik hayotga moslashuvini osonlashtiradi. Mo‘ljal olish va harakatlanish mashg‘ulotida o‘quvchilarning korreksion-ijtimoiy harakat ketma-ketligi quyidagicha namoyon bo‘ladi:



4-rasm. Mo‘ljal olish va harakatlanish va logopediya korreksion mashg‘ulotlari integratsiyasida o‘quvchilarning korreksion-ijtimoiy harakat ketma-ketligi

“Do‘konda mo‘ljal olish va harakatlanish” o‘quvchiga do‘konda kerakli turdagi guruch navini topish va sotib olish topshirig‘i beriladi. Buning uchun don mahsulotlari rastasini topish kerak. Topshiriq og‘zaki boriladi, u aniq, lo‘nda, tushunarli bo‘lishi lozim. O‘quvchi topshiriqni eshitib idrok qiladi. Doimiy tashrif buyuradigan do‘kon bo‘lsa, rastalar joylashuvini xotirasida tiklab, xarita bo‘ylab harakatlanadi. Agar avval tashrif berilmagan do‘kon bo‘lsa, unda ovozi sensor moslamalar, ko‘rsatkichlar bo‘lmaganda atrofda gildardan ko‘mak so‘raydi. Ya‘ni do‘kondorga murojaat qiladi. “Men guruch sotib olishim kerak. Iltimos, menga guruch rastasini ko‘rsatib yuboring.”- deb yordam so‘rashi mumkin. Demak, bu jarayonda o‘quvchi ijtimoiy maishiy hayotga tayyorlash darsida olgan bilimlariga tayanadi. Masalan, oshni guruchning lazer, devzira, alanga kabi navlaridan, mastavani esa, maydalangan guruchdan tayyorlanishini biladi. Do‘kondan osh uchun guruchning alanga navidan 2 kg, suyuq taomlar uchun esa, 1 kg maydalangan guruch kerakligini aytadi. Bu jarayonda o‘quvchi tavsiflayapti. Bunday tavsiflashga “Logopediya” mashg‘ulotidagi nutqiy murojaatlarni amalga oshirish mashqlarida o‘zlashtirgan bo‘ladi. O‘z-o‘zidan o‘quvchi tavsifladi, guruch navi va narxini farqlaydi, topshiriqni bajaradi, ya‘ni o‘ziga kerakli mahsulotni xarid qiladi.

Har bir harakat modellari kompozitsiyasi, konfiguratsiyasi o‘zgarib boradi. Mavzuni murakkabligi, tuzilishiga ko‘ra konfiguratsiya o‘zgargan bo‘lsada, ya‘ni har qanday jarayonda his etib, idrok etish korreksion-ijtimoiy harakat tizimining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg‘ulotlarning turli shakllarini o‘zaro integratsiyalash ularning har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Predmet tasavvurini shakllantirish, logopediya, teri tuyish va qo‘l motorikasini rivojlantirish, ijtimoiy-maishiy hayotga tayyorlash hamda mo‘ljal olish va harakatlanish mashg‘ulotlarining o‘zaro uyg‘unligi bolalarning akademik, nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayonda pedagoglar tomonidan ishlab chiqiladigan metodik yondashuvlar har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda rejalashtirilishi muhimdir. Korreksion mashg‘ulotlarning integratsiyasi nafaqat ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etadi, balki bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ularni jamiyatga muvaffaqiyatli qo‘shish va mustaqil hayotga tayyorlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish maxsus ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish va bolalarning hayot sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Qodirova F. U., & Xusnuddinova Z. X. (2022). Tiflopedagogika.
2. Qodirova F. U., & Xusnuddinova Z. X. (2024). Mo‘ljal olish va harakatlanish.
3. Qodirova F. U., & Xusnuddinova Z. X. (2023). Maxsu pedagogika
4. Xusnuddinova Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(2), 68-70.